

**XIV-XIX ASRLAR SAMARQAND TARIXINING
XORIJIY MAMLAKATLAR TARIXSHUNOSLIGIDA
YORITILISHI**

Imomov Ulug'bek Ismoilovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrasida 2-bosqich magistranti

E-mail: imomovulugbek59@gmail.com

Annotatsiya: *Ilmiy tadqiqotni o'rganishda Samarqand hududiga XV-XIX asrlarda elchilar, diplomatlar va sayyohlar ko'rinishida kelgan tarixiy shaxslarning asarlari, kundaliklari, shuningdek, Zamonaviy dunyoning tarixshunoslik markazlarida ilmiy natijalar mahsuli sifatida chiqarilgan kitoblar muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida G'arbiy Yevropa tarixshunosligida Samarqand tarixining o'rganilishi masalasiga oid muhim ilmiy ma'lumotlar to'plandi. Ushbu maqolada XIV-XIX asrlar Samarqand tarixining xorij tarixshunosligida yoritilishiga doir manbalar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Tarixshunoslik, G'arbiy Yevropa, Samarqand, ilmiy markazlar, tarixiy dalillar, zamonaviy tadqiqot usullari, tarixiy kundalik va sayohatnomalar.*

Jahon tarixida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalar hamda ularning tarkibiy qismi bo'lgan shaharlar tarixining o'rganilishi har bir xalqning dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini aniqlash imkonini beruvchi muhim elementlardan biri sanaladi. Asta-sekin shakllanayotgan iqtisodiy va madaniy jarayonlar markazida insoniyat uchun barqaror jamiyatni ta'minlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Insonlarning intellektual ehtiyojlarini qondirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ta'lim muassasalari alohida o'ringa ega. Endilikda dunyo mamlakatlarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonida xalqaro hamkorlik dasturlarining ahamiyati yuqori bo'lib,

2015-yilda BMT Bosh Assambleyasining «2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar»ini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Dunyoning rivojlangan xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari va universitetlarida Samarqand tarixi, madaniyati va ta'lim tizimini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Jumladan, Samarqandning XIV-XIX asrlardagi tarixiy o'tmishi, undagi ta'lim jarayonlari, madrasalarning davlat va jamiyati rivojiga ta'siri, Samarqand shahrining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari kabi masalalar jahonning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta'lim muassasalari hisoblangan Gottingen universiteti (Germaniya), Oslo universiteti (Norvegiya), Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya) «Markaziy Osiyo» bo'limi, Leyden universiteti (Niderlandiya)larida alohida e'tibor berilmoqda.

Yangilanayotgan O'zbekistonda boy madaniy merosni asrab-avaylash, madaniyatimizni jahon hamjamiyatida targ'ib qilish va ta'limda zamonaviy tadqiqot usullarini tarixiy izlanishlarga keng joriy etish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti to'g'ri ta'kidlaganidek: «Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda». Bugungi kunda O'zbekistonda «Uchinchi Renessans» davriga poydevor qurish uchun ta'lim tizimining tarixiy asoslari, Samarqand tarixini yoritishda olib borilgan davlat siyosati va uning mohiyatini chuqur o'rganish, izchillik bilan manbalar va tarixiy dalillar asosida yoritib berish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

O'rta asrlar davrida Samarqand tarixining G'arbiy Yevropa tarixshunosligida aks ettirilishi, XV-XIX asrlarda Samarqandning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida G'arb olimlari va sayohatchilari keltirgan ma'lumotlarining tavsifi, Rossiya Imperiyasi bosqini davrida Samarqand tarixining G'arb tarixshunosligida o'rganilishi tanlangan muammoning xususiy jihatlarini aniqlash hamda tizimli ravishda o'rganishga imkon beradi. Bu esa dissertatsiyaning tarix fani sohasidagi zaruratini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4797-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar

strategiyasi to'g'risida»gi hamda 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-sonli «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-sonli Qonuni, shuningdek, ushbu sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi

Bu sohada ayniqsa Jorj Nataniel Kerzon, Aleksandr Morrison; Jon Vesley Bukvolter, Demetriy Charlz Balgar, Charlz Uilyam Vatson, Uilyam Elroy Kyortis, Jorj Dobson, Fred H. Fisher, Stefen Graham, Genri Lansdell, Aleksandr Leman, Genri Norman, Vulrix Perovne, Izabella Mari Fibbs, Shubert fon Zoldern, Maks fon Proskovets, Armeniy Vamberi, Adib Xolid, Andrea Vild, Yudjin Skayler, Ingeborg Baldauf, Bonvalot Per Gabriel va boshqa tarixchi, sayyoh hamda sharqshunos olimlarning yozib qoldirgan ma'lumotlari diqqatga sazovordir.

Mustaqil O'zbekistonda tarixshunoslik va manbashunoslik fani rivoji bugungi zamonda ham kun tartibiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqsak, biz tanlagan Ilmiy tadqiqot yetarlicha yoritilmaganini va bu masala o'z yechimini kutayotgan muhim tarixiy vazifalardan biri ekanligini ko'ramiz. Chunki, O'zbekiston hududida G'arbiy Yevropa tarixshunosligida Samarqand tarixining o'rganilishi masalasi tarixiy tadqiqotlar, yozma manbalardagi mavjud ma'lumotlar bilan solishtirish orqali kompleks ravishda hozirgacha ko'rib chiqilmagan. Samarqandning xorij tarixshunosligiga qo'shgan hissasi yetarlicha ochib berilmagan. Ayniqsa, bu Ilmiy tadqiqotda davlat tilida biror bir yirik ilmiy asar yozilmaganligi ham, bu muammo zamonaviy o'zbek tarixshunosligi va manbashunosligida yetarli darajada o'rganilmaganligidan dalolat beradi.

Hozirda mustaqil O'zbekiston o'z tarixini yangicha baholaydi. Buning uchun iqtisodiyotga ta'sir qiluvchi sohalar tarixining hamma davrlari bo'yicha aniq, xolisona yozilgan ma'lumotlar kerak bo'ladi. Samarqand mamlakatimizning

eng yirik turizm komplekslaridan biri hisoblanib, G'arbiy Yevropa tarixshunosligida Samarqand tarixining o'rganilishi Ilmiy tadqiqotsidagi dissertatsiya ishi ushbu muammoning qanchalik keng yoritilganligini ko'rsatib berish orqali mana shu sohaning rivojiga turtki bo'lib xizmat qiladi. G'arbiy Yevropa tarixshunosligida Samarqand tarixining o'rganilishi hozirgi zamon tarixshunosligi va manbashunosligi uchun ham qimmatlidir:

- birinchidan, xorijiy tadqiqotchilar va sayyohlari tomonidan yozilgan asarlarni izlab topish va ularni chuqur o'rganish;
- ikkinchidan, ma'lumotlarni tahlil qilish, mahalliy manbalar bilan solishtirish, yangiliklarni o'rganish va tarixiy xatoliklarga ilmiy xulosalar berish;
- uchinchidan, G'arbiy Yevropa tarixshunosligida Samarqand tarixining o'rganilishi yuzasidan vujudga kelgan tarixiy bo'shliqni to'ldirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy vazifalari

1. G'arbiy Yevropa tarixshunosligida Samarqand tarixining o'rganilishiga doir tarixiy-ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilish;
2. Ingliz tarixshunoslarining ilmiy tadqiqotlarida Samarqand tarixining yoritilganlik darajasini ochib berish;
3. Rus, nemis va fransuz tarixshunos olimlari va sayohatchilar tadqiqotlarida Samarqandning tarixiy tavsifini yuzaga chiqarish;
4. XV-XIX asrlardagi Samarqand shahrining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ravnaqi tarixiy-ilmiy dalillar asosida isbotlash;
5. Rossiya Imperiyasi bosqinidan keyingi Samarqand tarixining manbalar asosida tasniflanishining xususiyatlarini ko'rsatish;
6. Hozirgi zamon talablari darajasidagi magistrlik dissertatsiyasi uchun G'arbiy Yevropa tarixshunosligida Samarqand tarixning o'rganilishi bo'yicha yakunlangan ilmiy-tadqiqot ishini yaratish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, ilk bor XV-XIX asrlardagi G'arbiy Yevropa tarixshunosligida Samarqand tarixining o'rganilishiga doir tarixiy asarlar va hujjatlar tahlil qilinadi, ular bir tizimga solinib, asl ma'lumotlar tiklanadi. Xorijda Samarqand tarixshunosligi haqida chiqarilgan ma'lumotlar, qo'lyozma kitoblar, monografiyalar qanday saqlanayotganligi, ulardagi shahar tarixiga oid dalillarning qanchalik haqiqatga mosligi tekshiriladi, ma'lumotlar tahlil qilinib, xatolar va kamchiliklar ustida izlanishlar olib boriladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati XIV-XIX asrlarda Samarqand tarixining yoritilishiga oid G'arbiy Yevropalik tadqiqotchilar asarlarining tub mohiyatini aniqlash va tahlil qilishga xizmat qiluvchi nazariy-metodologik yondashuvlar va metodlarni mukammallashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilmiy natijalardan oliy ta'lim muassasalarida «G'arbiy Yevropa tarixshunosligida Samarqand tarixining o'rganilishi» nomli yangi fan dasturini Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi o'quv rejasiga kiritish hamda ushbu yangi fan bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Adeeb Khalid. The politics of muslim cultural reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: 1998.
2. Alexander Lehmann. Reise nach Buchara und Samarkand. – St. Petersburg: 1852.
3. Alexander Morrison. Russian rule in Samarkand 1868-1910. – New York: Oxford University Press, 2008.
4. Andreas Wilde. The Emirate of Bukhara. – Oxford: Oxford University Press, 2017.
5. Armenius Vambery. Travels in Central Asia. – London: 1864.
6. Bonvalot Per Gabriel. Central Asia: from Moscow to Bactria. – Paris: 1884.
7. Bonvalot Per Gabriel. In Central Asia: from Kohistan to the Caspian Sea (voyage 1880-1882). – Paris: 1885.

8. Charles William Watson. Further correspondence respecting Central Asia. № 1. – London: 1879.
9. Demetrius Charles Boulger. Afghanistan, China, and Central Asia. – London: 1885.
10. Eugene Schuyler. Turkestan: Travel notes to Russian Turkestan, Kokand, Bukhara and Gulja. – New York: 1877.
11. Fred H. Fisher. Afghanistan and the Central Asian question. – London: James Clarke & Co., 1878.
12. George Dobson. Russia's railway advance into Central Asia. – London: William H. Allen & Co., 1890.
13. George Nataniel Curzon. Russia in Central Asia in 1889. – London: Longmans, Green & Co., 1889.
14. Henry Lansdell. Russian Central Asia. Volume 1. – London: 1883.
15. Henry Norman. All the Russias travels and studies. – London: William Heinemann, 1902.
16. Ingeborg Baldauf. Some thoughts on the formation of the Uzbek nation. – Berlin: 1991.
17. Isabelle Mary Phibbs. A visit to the Russians in Central Asia. – London: 1899.
18. John Wesley Bookwalter. Siberia and Central Asia. – Springfield and Ohio: 1899.
19. Maev N.A. Grand opening of the Samarkand section of the Trans-Caspian Railway. – Moscow: 1888.
20. Max von Proskowetz. Vom Newastrand nach Samarkand durch Russland. – Wien: 1889.
21. Meyendorf E.K. A Journey from Orenburg to Bokhara in 1820. – Calcutta: 1870.
22. Schubert von Soldern. Die Baudenkmale von Samarkand. – Wien: 1898.
23. Stephen Graham. Through Russian Central Asia. – London, New York, Toronto and Melburn: 1916.

24. William Eleroy Curtis. *Turkestan: The Heart of Asia*. – New York: 1911.
25. Woolrych Perowne. *Russian hosts and English guests in Central Asia*. – London: 1898.
26. Арандаренко Г.А. *Досуги против Туркестана (1874–1889)*. – СПб: 1889.
27. Бартольд В.В. *Отчет о поезде на Ближнем Востоке в 1893-1894 гг.* – СПб.: 1897.
28. Варвара Духовская. *Туркестанская Воспоминания*. – СПб: 1913.
29. Верещагин В.В. *На войне в Азии и Европе. Воспоминание художника*. – Москва: 1894.
30. Вяткин В.Л. *Афрасиаб – город Самарканд // Археологический очерк*. – Ташкент: 1926.
31. Гребенкин А.Д. *Этнографический очерк Заравшанского округа. Том 5. № 41*. – Москва: 1871.
32. Дмитриев-Кавказский Л.Е. *Альбом путевых заметок: "По Средней Азии: Записки чудесника" (199 рисунков)*. – СПб: 1894.
33. Костенко Л. *Средняя азия и водворение в ней русской гражданственности*. – СПб: 1871.
34. Кун А.Л. *Туркестанский альбом. Часть историческая. 1871-1872*. – Ташкент: Тип. Туркестанского губернатора, 1872.
35. Лунин Б.В. *Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане // Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917)*. – Ташкент: 1958.
36. Мушкетов И.В. *О местах рождениях золота и другикс полезных ископаемых в Туркестанском крае*. – Ташкент: 1877.
37. Руи Гонсалес де Клавихо. *Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406)*. – Москва: 1990.
38. Симаков Н.Е. *Искусство Средней Азии. Выпуск 2*. – СПб: 1882.
39. Ступаков И.Е. *Адрес-справочник Туркестанского края*. – Ташкент: 1910.

40. Хорошхин А.П. Из сборника статей касающихся до Туркестанского края. – СПб: 1871.